

**ZAMONAVIY STOMATOLOGIYADA INNOVATSION
TEKNOLOGIYALAR.**

Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti

Stomatologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Salohiddinova E'zoza

Bugungi kunda tibbiyotning barcha sohasi jadal rivojlanmoqda. Ayniqsa, stomatologiya fani zamonaviy texnologiyalar, raqamli uskunalar va innovatsion materiallar yordamida butunlay yangi bosqichga ko'tarildi. Avvalari tish og'rig'i, tish yo'qotilishi yoki karies inson hayotini azobga soluvchi muammo bo'lsa, bugun ularni ogg'riqsiz, tez va estetik tarzda bartaraf etish imkoniyati mavjud. Innovatsiyalar tufayli stomatologiya endi nafaqat davolash, balki oldini olish, aniqlash va estetik mukammalini ta'minlash asosiga faniga aylandi. Stomatologiya ilgari faqat qo'l mehnatiga asoslangan, mexanik asboblardan ishlangan. Hozir esa stomatologik klinikalarda raqamli texnologiyalar, 3D skanerlar, lazer apparatlari, sun'iy intellekt tizimlari va biokompatibil materiallar keng qo'llanilmoqda. Bu texnologiyalar nafaqat davolash sifatini oshiradi, balki bemorning vaqtini, pulini ham tejaydi. Har qanday davolash jarayoni to'g'ri tashxisdan boshlanadi. Shu bois, bugungi kunda stomatologiyada raqamli rentgen va 3D tomografiya usullari keng qo'llanilmoqda. Ular oddiy rentgenga nisbatan ancha yuqori aniqlikda tasvir beradi. Tish ildizlari, suyak to'qimalari, nerv yo'llari holatini to'liq ko'rsatadi. Bunday texnologiyalar yordamida shifokor eng kichik muammolarni ham erta bosqichda aniqlay oladi. Masalan, CBCT apparati orqali og'iz bo'shlig'ining uch o'lchamli modeli olinadi. Bu esa implantatsiya, ortodontiya yoki jarrohlik operatsiyalarini oldindan aniq rejalashtirish imkonini beradi. Raqamli diagnostika shifokorning ko'rish doirasini kengaytiradi, inson xatosini kamaytiradi va bemor xavfsizligini ta'minlaydi.

3D rentgen apparatlari. So'nggi yillarda 3D printer texnologiyasi stomatologiyada rivojlandi. Oldin protez va tish qoplamasini tayyorlash uchun bir

necha kun,ba'zan haftalar kerak bo'lgan. Endi esa 3D skaner yordamida og'izning aniq raqamli modeli olinadi va printer orqali kerakli qism bir necha soat ichida tayyorlanadi. Bu texnologiya stomatologik laboratoriyaning ishini tezlashtiradi, aniqlikni oshiradi va inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamyatiradi. 3D printerlarda ishlab chiqiladigan materiallar ekologik toza va biokompatibil bo'lib, og'iz to'qimalarida allergiya yoki yallig'lanishni keltirib chiqarmaydi. Innovatsion texnologiyalar nafaqat davolashda, balki estetik ko'rinishni yaxshilashda ham keng qo'llanilmoqda. Tish oqartirish, inlay va onlay tizimlari yordamida tabassumni mukammal qilish mumkin. Shuningdek, kompyuter dasturlari yordamida oldindan tabassumni modellashtirish imkonini bermoqda. Zamonaviy stomatologiya bugungi kunda nafaqat tishlarni davolovchi, balki inson hayot sifati va farovonligini oshiruvchi tibbiyot sohasiga aylandi. Innovatsion texnologiyalarbu faqat zamonaviy uskunalar emas, balki yangi tafakkur, yangi yondashuv va inson salomatligiga bo'lgan yangi ma'sulyatdir. Har bir stomatolog zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishi, ularni amaliyotda to'g'ri qo'llashi va bemorning sog'lom tabassumini ta'minlash yo'lida tinimsiz o'rganish zarur. Sog'lom tish-bu nafaqat sog'lom og'iz, balki sog'lom jamiyat timsolidir.